

## O'ZBEK VA RUS TILIDAGI OT SO'Z TURKUMINING QIYOSIY TIPOLOGIYASI.

**Murodaliyeva Dinara Qahramon qizi**

*Qarshi davlat universiteti O'zga tilli guruhlarga  
rus tili ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada ot so'z turkumining o'zbek va rus tilida va rus tilidagi vazifasini o'rganiladi, har tomondan ya'ni grammatik(morfologik va sintaktik)tahlillarini ko'rib chiqiladi.*

### **KIRISH**

O'zbek tili – qon-qonimizga singib ketgan, ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan va bugungi kunga kelib o'z mavqeyiga ega bo'lgan til desak yanglishmagan bo'lamiz. Nega bugungi kunga kelib? Sababi, bugungi kungacha o'zbek tiliga har xil kamsitishlar bilan qaralgan bo'lsa, endilikda tilimizning davlat va jamiyat hayotidagi ta'siri va mavqeyini yanada oshirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Asosiy qism.

So'zlar lug'aviy ma'nolari, morfologik belgilari va gapda bajaradigan sintaktik vazifalariga ko'ra o'zaro farqlanuvchi turli guruhlarga bo'linadi. Bundan kelib chiqadiki, so'zlarning lug'aviy va Grammatik jihatdan farqlanishiga ko'ra bunday guruhlarga bo'linishi so'z turkumlari deyiladi. Albatta, har bir tilda so'z turkumlari mavjud, ammo bir-biridan uzviy farq qiladi. Quyida biz so'z turkumlaridan biri bo'lgan ot so'z turkumini o'zbek tilidagi va rus tilidagi tasniflarini, o'xshashliklarini va farqlarini ko'rib chiqamiz. Har ikki tilde ham predmetning nomini bildirib, kim? nima? (rus tilida кто? что?) so'roqlariga javob bo'ladigan mustaqil so'zlar ot deyiladi. Ikki tildagi ot so'z turkumi bo'yicha o'xshashliklarni ko'rib chiqsak. Birinchi navbatda aytib o'tishimiz joizki, yuqorida aytganimizdek, ikki tilde ham ot so'z turkumi shaxs yoki narsaning nomini bildiradi. Shuningdek, o'zbek tilida ham, rus tilida ham ot so'z turkumi bo'yicha so'z borganda, son va kelishiklar jihatdan ancha o'xshashlik bor. Son bo'yicha o'xshashlikni misol qilib olsak, ayrim ruscha otlarning (мука, любовь, снег) ko'plik shaklini hosil qilib bo'lmaydi, quyida sanalgan otlar faqat birlik shakliga ega. Ba'zi otlar esa faqat ko'plikda qo'llanadi. Bularga misol qilib *обои, бусы, весы* so'zlarini olsak bo'ladi. Xuddi shunday faqat birlikda qo'llanadigan otlar o'zbek tilida ham mavjud. Demak, quyosh, sut, neft kabi otlarni fikrimiz dalili sifatida misol qilsak bo'ladi. Shuni ham aytib o'tish joizki, o'zbekcha otlarda ko'plik qo'shimchasi *-lar* bilan, rus tilidagi otlarga *-и* qo'shimchasi bilan hosil bo'ladi. Binobarin, ot so'z turkumi ikki tilda ham 6 ta kelishik bilan ifodalanishi bu ikki tildagi o'xshashliklardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Endi tafovutlar haqida gap ketganda, birinchi navbatda, ularning rus tilida 3 ta rodlar bo'yicha guruhlash, o'zbek tilida esa buning yo'qligini aytib o'tish kerak. Masalan, rus tilida oxiri undosh bilan tugagan so'zlar *муjskoy rodga* (стол, стул, шкаф), oxiri unli bilan tugagan so'zlar

jenskiy rodga (мама, планета), oxiri -o, -e bilan tugaganlari esa sredniy rodga (солнце, окно) kiradi. Qo'shimcha qilib shuni aytib o'tish joizki, ikkala tilda ham otlarning jonli va jonsizga, atoqli (собственные), turdosh (нарицательные) ga ajralishi tomonidan ham o'xshashlik bor.

#### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ikkala til o'rtasida qator farqlar va ayrim o'xshashliklar bor. Bularni Grammatik kategoriyalar bo'yicha qiyoslab o'rganish uchun o'zbek tili va rus tili grammatikasi bo'yicha bilimlarni puxta egallash zarur.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Hamrayeva Y., Elmurodova L. O'zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi. Qarshi "Nasaf", 2007.
2. Azizov O., Safayev A., Jamolxonov. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. T., 2016.
3. Kissen I.A. Rus va o'zbek tillarining qiyosiy grammatikasi kursi. T., 2019.